

O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SIYOSAT EVOLYUSIYASI: MUSTAQILLIKDAN TO HOZIRGACHA

Turabov Bahodir To‘xtamishovich
Moliya va kredit kafedrasi professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori, dotsenti
E-mail: bahodirturabov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy siyosatning mustaqillikdan to hozirgi davrgacha bo‘lgan bosqichma-bosqich rivojlanishi tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakat iqtisodiy mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda amalga oshirilgan fiskal islohotlar, soliq tizimining shakllanishi, byudjet intizomini mustahkamlash choralari va milliy valyutaga o‘tish jarayonining moliyaviy barqarorlikka ta’siri yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Moliyaviy siyosat, fiskal islohotlar, soliq tizimi, byudjet intizomi, milliy valyuta, bozor iqtisodiyoti, byudjet-soliq siyosati, moliyaviy barqarorlik, raqamli moliyaviy boshqaruv, investitsiya jozibadorligi, fiskal shaffoflik, iqtisodiy o‘sish.
Abstract: This article analyzes the stage-by-stage development of the financial policy of the Republic of Uzbekistan from independence to the present day. The study highlights the fiscal reforms implemented in the early years of achieving economic independence, the formation of the tax system, measures to strengthen budget discipline, and the impact of the transition to the national currency on financial stability.
Keywords: financial policy, fiscal reforms, tax system, budget discipline, national currency, market economy, fiscal and budget policy, financial stability, digital financial management, investment attractiveness, fiscal transparency, economic growth.
Абстрактный: В данной стате проанализировано поэтапное развитие финансовой политики Республики Узбекистан с момента обретения независимости до настоящего времени. В исследовании освещены фискалные реформы, реализованные в первые годы достижения экономической независимости страны, формирование налоговой системы, меры по укреплению бюджетной дисциплины, а также влияние процесса перехода к natsionalной валюте на финансовую стабилност.
Ключевые слова: финансовая политика, фискалные реформы, налоговая система, бюджетная дисциплина, natsionalная валюта, рыночная экономика, бюджетно-налоговая политика, финансовая стабилност, цифровое финансовое управление, инвестиционная привлекателност, фискалная прозрачност, экономический рост.

Kirish (Введение/Introduction).

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan 1991-yildan boshlab, mamlakat yangi iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllantirish va bozor mexanizmlariga asoslangan moliyaviy boshqaruvni yo‘lga qo‘yish zarurati bilan yuzma-yuz keldi. Dastlabki yillarda davlat moliyasi, soliq tizimi, pul-kredit siyosati va byudjet jarayonlari tubdan qayta tashkil etildi. Moliyaviy siyosatning ilk bosqichlari asosan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani jilovlash, milliy valyutani joriy etish va fiskal intizomni mustahkamlashga qaratildi. Bu jarayonlarda davlatning faol ishtiroki mamlakatni iqtisodiy tanazzuldan chiqarish hamda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini izchil tatbiq etishda muhim omil bo‘ldi.

Bugungi globallashuv sharoitida samarali moliyaviy siyosat iqtisodiy o‘sish, makrobarqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekistonda moliyaviy siyosatning mazmuni va ustuvor yo‘nalishlari har bir bosqichda yangilanib bordi: dastlab barqarorlashtirish vazifasi ustun bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda soliq yukini kamaytirish, byudjet siyosatini liberallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari jadallashdi. Ayniqsa, mamlakatning so‘nggi yillarda amalga oshirgan islohotlari moliyaviy siyosatning tub tarkibiy o‘zgarishlarga yuz tutganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda davlat moliyaviy siyosatini tubdan isloh qilish va uni iqtisodiy islohotlar bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, soliq va byudjet siyosatini liberallashtirish, davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[1].

Shu bilan birga, moliyaviy boshqaruvning keyingi islohoti soliq tizimini soddalashtirish, davlat byudjetining shaffofligini ta’minlash, elektron byudjet tizimini joriy etish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlash kabi yo‘nalishlarda davom ettirildi. Bu jarayonlar O‘zbekistonning mustaqillikdan hozirgacha bo‘lgan moliyaviy siyosat evolyutsiyasini uzluksiz, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan murakkab va izchil jarayon sifatida tavsiflaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Moliyaviy siyosat va uning evolyutsiyasi sohasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy tadqiqotlardan biri sifatida A. Auerbach va M. Feldsteinning ishlari O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri va davlat byudjeti samaradorligini oshirish yo‘llarini yoritadi[2]. Ular fiskal siyosatning iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya darajasini tartibga solishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, tadqiqot asosan rivojlangan mamlakatlar sharoitiga qaratilgan bo‘lib, mahalliy iqtisodiy va institutsional sharoitlarni yetarlicha hisobga olmaydi.

Boshqa xorijiy tadqiqot sifatida Gulyamova va Karimov O‘zbekiston moliyaviy siyosatining fiskal va byudjet boshqaruvi, soliq tizimi islohotlari va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash masalalarini tahlil qilgan[3]. Mualliflar soliq siyosati va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni batafsil ko‘rsatadilar, shuningdek, moliyaviy siyosatning ochiqlik va investitsiya jozibadorligini oshirishdagi rolini yoritadilar.

Mahalliy tadqiqotlardan Rasulova va Tursunova O‘zbekiston moliyaviy siyosatining so‘nggi yillardagi islohotlarini, jumladan soliq

tizimini soddalashtirish, byudjet shaffofligini oshirish, raqamli moliyaviy boshqaruvni joriy etish va davlat xarajatlarini samarali taqsimlash yo‘nalishlarini o‘rganadilar[4]. Ular moliyaviy siyosatning milliy iqtisodiyot sharoitida izchil modernizatsiyalashuvi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini yoritadilar. Biroq, tadqiqotlarda xalqaro tajribani solishtirish va tarixiy kontekstga chuqurroq e’tibor berish kamroq ko‘rsatilgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda moliyaviy siyosatning mustaqillik yillaridan hozirgi davrgacha bo‘lgan evolyutsiyasini tizimli va tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganish maqsadida tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, statistik tahlil, induksiya va deduksiya, retrospektiv tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini moliyaviy siyosatning davlat iqtisodiy siyosatidagi o‘rni, davlat byudjeti, soliq tizimi, davlat xarajatlari, davlat qarzi, pul-kredit munosabatlari va moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining bosqichma-bosqich shakllanishi va takomillashuvi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston moliyaviy siyosatining rivojlanishi shartli ravishda mustaqillikning dastlabki yillari, bozor iqtisodiyotiga moslashish va institutsional islohotlar davri, 2017-yildan keyingi faol iqtisodiy islohotlar bosqichi hamda zamonaviy raqamli va natijaga yo‘naltirilgan moliyaviy boshqaruv davrlariga ajratib tahlil qilindi. Har bir bosqichda moliyaviy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, ustuvor vazifalari va iqtisodiy sharoit bilan bog‘liq o‘zgarishlari o‘zaro taqqoslandi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli orqali turli davrlarda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari, soliq siyosati, davlat moliyasi boshqaruvi, investitsiyalarni moliyalashtirish hamda ijtimoiy xarajatlarning ustuvor yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Retrospektiv tahlil yordamida moliyaviy siyosatning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan iqtisodiy va institutsional omillar tarixiy ketma-ketlikda tahlil qilindi. Shuningdek, statistik tahlil asosida moliyaviy ko‘rsatkichlarning dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishlari baholandi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, iqtisodiy islohotlar konsepsiyalari va rasmiy statistik ma’lumotlar asosiy axborot manbalari sifatida olindi. Mazkur metodlar majmuasi O‘zbekistonda moliyaviy siyosatning oddiy fiskal boshqaruvdan iqtisodiy o‘sish, makroiqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy himoya, investitsion faollik va barqaror rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks siyosatga aylanish jarayonini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and rezults).

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shu bois, moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida asosiy unsur hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Mazkur faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan. Ijtimoiy rivojlanish deyilganda faqatgina ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanishi tushunilmasdan, shu bilan bir qatorda, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi ham tushuniladi.

Moliyaviy siyosat o‘z-o‘zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Siyosat, siyosiy ta’sir va siyosiy rahbarlik quyidagi uch unsurdan tarkib topadi:

► bosh maqsadni aniqlash va qo‘yish hamda jamiyat hayotining ma’lum bir davriga xos qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yechilishi zarur bo‘lgan istiqboldagi va joriy vazifalarni aniqlashtirish;

► ularning yordamida qo‘yilgan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishiladigan, joriy va istiqboldagi vazifalar esa oqilona tartibda hal qilinadigan munosabatlarning usullari, vositalari va aniq shakllarini ishlab chiqish;

► qo‘yilgan vazifalarni yechishga qodir bo‘lgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning bajarilishini tashkil qilish[9].

1-jadval

Turli mualliflar tomonidan moliyaviy siyosatga berilgan ta’riflar[9]

Mualliflar	Moliyaviy siyosatning ta’rifi
1988-yilda nashr qilingan moliya-kredit lug‘ati	Moliyaviy siyosat iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi; uning funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va undan foydalanish bo‘yicha davlat chora-tadbirlari to‘plami; moliyaviy resurslarni safarbar qilish shakl va usullari tizimi, ularni aholi qatlamlari va ijtimoiy guruhlari, faoliyat sohalari va mamlakat hududlari o‘rtasida taqsimlash, moliyaviy qonunchilikda, davlat daromadlari va xarajatlari tarkibida namoyon bo‘ladi.
M.K. Shermenyov	Moliyaviy siyosat – moliyadan foydalanish sohasida davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Moliyaviy siyosat – moliyaning muayyanlashgan ifodasidir.
I.V. Levchuk	Moliyaviy siyosat moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanishni markazlashtirilgan va demokratik boshqarishning to‘g‘ri kombinatsiyasini yaratishga mo‘ljallangan.
V.M. Rodionova tahriri ostidagi “Moliya” darsligi	Moliyaviy siyosat – sotsialistik davlatlarning moliyadan foydalanish borasidagi faoliyati.
I.T. Balabanov	Moliyaviy siyosat – bu davlatning iqtisodiy, harbiy, ekologik va ijtimoiy sohadagi siyosatini mustahkamlash borasida moliyadan foydalanish borasidagi faoliyati.
L.A. Drobozina tahriri ostidagi “Moliya” darsligi	Moliyaviy siyosat – bu doimiy takror ishlab chiqarish jarayoni uchun moliyaviy resurslarni ta’minlash va takror ishlab chiqarishning muayyan ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy bo‘linishni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoniga yo‘naltirilgan maqsad va vazifalarni aniqlashtirishdir.
A.G. Gryaznova, E.V. Markina tahriri ostidagi “Moliya” darsligi	Moliyaviy siyosat – davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish uchun moliyaviy asos yaratish bo‘yicha eng samarali chora-tadbirlarni aniqlashtirish borasida davlatning moliyaviy boshqaruv sohasidagi maqsadli chora-tadbirlari majmui.

Avalo boshlang‘ich tuhsunchalarga aniqlik kiritib o‘tsak, moliyaviy siyosat -davlatning iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, rivojlanishni boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida byudjet, soliq, davlat xarajatlari hamda pul-kredit instrumentlari orqali amalga oshiradigan faoliyatidir. Mazkur siyosat iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlariga ta’sir ko‘rsatib, daromadlarning taqsimlanishi, investitsiyaviy jarayonlarning jadallashuvi, narxlar barqarorligi va iqtisodiy o‘sishning sur’atlari kabi asosiy yo‘nalishlarni shakllantiradi. Jahon amaliyotiga ko‘ra, moliyaviy siyosat iqtisodiy siklning turli bosqichlarida stabilizatsiya qiluvchi, rag‘batlantiruvchi yoki cheklovchi vazifalarni bajaradi. Shu sababli, har bir davlatning moliyaviy siyosati uning iqtisodiy rivojlanish bosqichi, ichki bozor imkoniyatlari va global jarayonlarga mos ravishda shakllanadi.

O‘zbekistonda moliyaviy siyosatning shakllanishi mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy beqarorlikni bartaraf etish zaruratidan kelib chiqqan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda u mamlakat rivojlanish strategiyasining asosiy tayanch omiliga aylandi. 1991–2000 yillarda davlat moliya tizimi mustaqil boshqaruvga o‘tkazildi, milliy soliq tizimi shakllandi, davlat byudjeti tarkibi qayta ko‘rib chiqildi va milliy valyuta muomalaga kiritildi. Bu davr fiskal barqarorlikni tiklashga qaratilgan ehtiyotkor siyosat bilan ifodalanadi.

2000–2016 yillarda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlari, davlat investitsiyalarining ko‘payishi, byudjet taqchilligini nazorat qilish va soliq

yukining bosqichma-bosqich kamaytirilishi moliyaviy siyosatning barqarorlik davrini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, valyuta bozorining yopiq bo‘lishi, bank tizimining cheklanganligi va bozor instrumentlarining yetarli rivojlanmagani jadal modernizatsiya jarayonini sekinlashtirdi. 2017 yildan boshlab boshlangan yangi islohotlar davri moliyaviy siyosatning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2017 yil 2 sentyabrda qabul qilingan PF-5177-son Prezident Farmoni bilan milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi yo‘lga qo‘yilishi pul-kredit siyosatini tubdan o‘zgartirdi. Valyuta bozoridagi cheklovlarning olib tashlanishi iqtisodiyotning ochiqligini oshirdi, tashqi iqtisodiy munosabatlarni jonlantirdi va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratdi. Bu islohotlar moliyaviy siyosatning bozor tamoyillariga moslashuvini kuchaytirib, O‘zbekistonni global integratsiya jarayonlariga faol qo‘shilishiga zamin yaratdi[5].

2-jadval

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi[1]

Yil	YaIM o‘sishi %	Inflatsiya %	byudjet taqchilligi %	Soliq tushumlari YaIMdagi ulushi	Valyuta ayirboshlash hajmi o‘sishi %	Tashqi savdo aylanmasi %
2020	4.8	11.0	-5.2	24.5	8	15
2021	7.4	10.2	-4.9	25.8	12	12
2022	5.7	9.5	-4.8	26.4	13	15
2023	6.0	8.6	-4.5	27.2	14	17
2024	6.5	7.9	-4.0	28.7	15	18
2025	6,0	7,0	-3,0	29,1	15,5	18,5

Quyidagi 2-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2020–2025 yillar davomida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili mamlakat iqtisodiyotida barqaror va ijobiy tendensiyalar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu davrda YaIM o‘sish sur’atlari 4,8 foizdan 6,5 foizgacha oshib, pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni bosqichma-bosqich barqarorlashganini aks ettiradi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining 11,0 foizdan 2025 yilda 7,0 foizgacha pasayishi pul-kredit siyosatining samaradorligi oshganidan dalolat beradi. Fiskal sohada byudjet taqchilligi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, uning YaIMga nisbatan ulushi –5,2 foizdan –3,0 foizgacha qisqargan, bu davlat moliyasini boshqarishda muvozanat kuchayganini ko‘rsatadi. Soliq tushumlarining YaIMdagi ulushi 24,5 foizdan 29,1 foizgacha o‘sib, fiskal bazaning kengayishi va soliq ma’muriyatchiligining takomillashganini tasdiqlaydi. Valyuta ayirboshlash hajmi o‘sishining 8 foizdan 15,5 foizgacha yetishi moliya bozorlarida faollik oshganini, tashqi savdo aylanmasining 5 foizdan 18,5 foizgacha kengayishi esa iqtisodiyotning ochiqligi va xalqaro integratsiya jarayonlari jadallashganini ifodalaydi. Umuman olganda, ko‘rsatkichlarning mazkur dinamikasi makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanib borayotganini hamda iqtisodiy rivojlanishning o‘rta muddatli istiqbollari ijobiy ekanini ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning tahlili olib borilgan islohotlarning amaliy natijalarini yaqqol namoyon etadi. YaIM o‘sish sur’atlari yillar davomida 5–7 foiz oralig‘ida shakllanib, mintaqa bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri sifatida qayd etildi. Pandemiya davridagi global iqtisodiy pasayish sharoitida ham O‘zbekiston iqtisodiyoti musbat o‘sishni saqlab qoldi, bu esa fiskal va monetar siyosatning uyg‘unlashganidan dalolat beradi. Inflyatsiya darajasi bosqichma-bosqich pasayib, Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetlash mexanizmlarining joriy etilishi narxlar barqarorligiga erishish imkonini bermoqda. Davlat byudjeti ko‘rsatkichlari ham izchil o‘zgarishlarni namoyon qilmoqda. byudjet daromadlari tarkibida soliqlarning ulushi oshib, soliq ma’muriyatining raqamlashtirilishi hisobiga tushumlarning barqarorligi ta’minlandi. byudjet taqchilligini kamaytirish, xarajatlar samaradorligini oshirish va fiskal intizomni mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar O‘zbekistonning moliyaviy barqarorligini kuchaytirdi.

Global iqtisodiy jarayonlar ham O‘zbekiston moliyaviy siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon bozorlarida energiya resurslari narxlarining tebranishi, global inflyatsiya bosimlari, xalqaro foiz stavkalari dinamikasi hamda moliyaviy texnologiyalarning tez sur’atda rivojlanishi davlat siyosatining moslashuvchanligini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, xalqaro standartlarga mos hisobot tizimini joriy etish va investorlar uchun iqtisodiy makonni soddalashtirish yo‘lida izchil faoliyat olib bormoqda.Moliyaviy siyosat — davlat iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy parametrlariga bevosita ta’sir qiluvchi iqtisodiy boshqaruv vositasi bo‘lib, bu siyosat orqali byudjet taqsimoti, soliq tashqi siyosati, davlat xarajatlari va pul-kredit mexanizmlari shakllanadi hamda amalga oshiriladi. Umuman olganda, moliyaviy siyosat iqtisodiy o‘sish, narxlar barqarorligi, bandlik va investitsiya faolligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samarali moliyaviy siyosat mavjud bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy sur’atlari yuqori, inflyatsiya barqaror va davlat moliyaviy holati mustahkam bo‘ladi[7].5

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan hozirgi davrgacha olib borilgan moliyaviy siyosat evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur siyosat dastlab iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda bozor mexanizmlariga moslashgan, liberallashgan va rivojlantiruvchi xarakter kasb etdi. Ilk yillarda fiskal intizomni mustahkamlash, soliq tizimini shakllantirish va milliy valyutani muomalaga kiritish ustuvor vazifa bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yillardan boshlab iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, byudjet barqarorligini ta’minlash va investitsion faollikni oshirish moliyaviy siyosatning asosiy yo‘nalishlariga aylandi.

Ayniqsa, 2017 yildan boshlab amalga oshirilgan islohotlar, jumladan milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi va pul-kredit siyosatining liberallashuvi O‘zbekiston moliyaviy siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi hamda iqtisodiyotning ochiqligi va investitsiya jozibadorligini sezilarli darajada oshirdi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili olib borilgan moliyaviy islohotlarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. 2020–2025 yillar davomida YaIM o‘sish sur’atlarining barqaror saqlanishi, inflyatsiya darajasining izchil pasayishi, byudjet taqchilligining qisqarishi va soliq tushumlari ulushining oshishi fiskal va monetar siyosat uyg‘unligini namoyon etadi. Shu bilan birga, valyuta ayirboshlash hajmi va tashqi savdo aylanmasining o‘sishi O‘zbekiston iqtisodiyotining global moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi kuchayganini ko‘rsatadi.

Ushbu ijobiy dinamika mamlakat moliyaviy siyosati iqtisodiy o‘sish, narxlar barqarorligi va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, moliyaviy siyosatni yanada takomillashtirish uchun fiskal barqarorlikni mustahkamlash, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va byudjet taqchilligini o‘rta muddatli istiqbolda bosqichma-bosqich kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq siyosatida soliq bazasini kengaytirish bilan birga, real sektor va kichik biznes uchun soliq yukini maqbullashtirish hamda soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirishni chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Pul-kredit siyosatida inflyatsion targetlash mexanizmlarini takomillashtirish, Markaziy bank mustaqilligini kuchaytirish va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish zarur. Shuningdek, fiskal shaffoflikni oshirish, elektron byudjet tizimlarini kengaytirish va tashqi iqtisodiy risklarni hisobga olgan holda moliyaviy siyosatning moslashuvchanligini kuchaytirish O‘zbekiston moliyaviy siyosatining uzoq muddatli samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Auerbach, A., & Feldstein, M. (1985). Macroeconomic Effects of Fiscal Policy. National Bureau of Economic Research.
3. Gulyamova, N., & Karimov, S. (2020). Fiscal and Budgetary Policy in Uzbekistan: Challenges and Reforms. Journal of Economics and Management, 18(2), 45–61.

[1] Muallif ishlanmasi

4. Rasulova, D., & Tursunova, M. (2021). Modernization of Financial Policy in Uzbekistan: Digitalization and Transparency. Central Asian Economic Review, 12(1), 22–37.
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar.
6. World Bank. Fiscal Policy. Jahon bankining fiskal siyosatga oid materiallari.
7. “Kapital” axborot portali. Iqtisodiyot va moliya sohasiga oid materiallar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Prezident faoliyati va davlat siyosatiga oid rasmiy ma’lumotlar.
9. Hasanov, B. A., Hashimov, A. A., Mukhametov, A. B., Abduvohidov, A. A., Urazmatov, J. M., Akramov, G‘. B., Narbayeva, M. A., & Yeshpulatov, D. B. (2023). Moliya va soliqlar: Oliy ta’limning 60310100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”, 60410100 – “Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik. B. A. Hasanov (tahr.). Toshkent: “Lesson Press”, 560 b.